

O'ZBEK ADABIYOTIDA ILMIY-FANTASTIKA JANRINING O'ZIGA XOSLIGI

Tohirova Umida Akramovna

Buxoro Davlat Universiteti

**Annotatsiya:** *XX asrning o'rtalarida jahon adabiyotida bu janr rivojangan bo'lsa, o'zbek adabiyotida biroz kech bo'lsada 60-yillarning oxirida kirib keldi. Endilikda fantastika adabiyotimizda o'z xususiyatlariga ega bo'lgan, mustaqil janr sifatida shakllandi. Haqiqiy ma'nodagi ilmiy-fantastika paydo bo'lguncha, qadimiy turk xalqlari og'zaki va yozma adabiyotlarida fantastika elementlari, ilohiy kuch-qudratga ega bo'lgan fantastik obrazlar yaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ilmiy-fantastika, fantaziya, hayolot, sivilizatsiya, epizod, xalq og'zaki ijodi, element, ilohiy.*

УНИКАЛЬНОСТЬ ЖАНРА НАУЧНОЙ ФАНТАСТИКИ В УЗБЕКСКОЙ  
ЛИТЕРАТУРЕ

**Аннотация:** *Если в мировой литературе этот жанр получил развитие в середине 20 века, то в узбекскую литературу он вошел несколько поздно, в конце 60-х годов. Ныне художественная литература сформировалась как самостоятельный жанр со своими особенностями в нашей литературе. До появления научной фантастики в реальном смысле устная и письменная литература древних тюркских народов создавала элементы фантастики и фантастические образы, обладающие божественной силой.*

**Ключевые слова:** *научная фантастика, призрак, цивилизация, эпизод, фольклор, стихия, божественное.*

THE UNIQUENESS OF THE SCIENCE FICTION GENRE IN UZBEK LITERATURE

**Abstract:** *While this genre was developed in world literature in the middle of the 20th century, it entered Uzbek literature a little late at the end of the 60s. Now fiction has formed as an independent genre with its own characteristics in our literature. Before science fiction appeared in the real sense, the oral and written literature of the ancient Turkic peoples created elements of fiction and fantastic images with divine power.*

**Key words:** *science fiction, fantasy, civilization, episode, folklore, element, divine.*

Ma'lumki, "fantastika" so'zi "fantazion" yunonchadan kelib chiqqan bo'lib, fantaziya, xayolot, uydirma, bo'lmagan narsa, haqiqatdan uzoq, tafakkur va mushohadaning cheksizligi singari ma'nolarni anglaydi. Fantaziya tufayli buyuk ixtirolar, kashfiyotlar qilinadi, badiiy adabiyotda esa buyuk asarlar yaratiladi. Demakki, so'z bemaqsad, bema'no orzu haqida emas, balki, hayotiy asosga ega bo'lgan

orzu, xayolot haqida bormoqda. Bu esa o'z navbatida inson mehnati, insoniyatning butun yaratuvchanlik faoliyati bilan bog'liqdir.

Inson fantaziyasi uning tarixi singari qadimiydir. Biroq, fantaziya qilish qobiliyati inson bilan birga tug'iladi, deb qarash noto'g'ri. Chunki, tafakkur singari u turli sabablar: ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar, imkoniyatlar va ehtiyojlar, lekin eng asosiysi ijtimoiy-kommunikativ sabablar ta'siri ostida paydo bo'lgan. Jamiyatning ibtidoiy rivojlanish davrida inson fantaziyasi sodda va oddiy bo'lgan. U darajada boy ham bo'lmagan. Ijtimoiy ong evolyusiyasi, bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning boshqasi bilan almashuvi inson dunyoqarashini o'zgartirdi, fikrlashini kengaytirdi va chuqurlashtirdi. Natijada inson hayoloti murakkab va boy, "konstruktiv" bo'la boshlagan. Shu boisdan, qadimda samarasiz, ba'zan amalga oshmaydigan orzulari bugungi haqiqatga aylandi. O'zbek xalq og'zaki ijodlarida uchar gilamlar, qanotli otlar, ochil dasturxonlar, tiriklik suvi va boshqalar to'g'risida orzu qilgan xalqlar, qat'iy mehnat, iste'dod va aqlning tirishqoqligi natijasida insoniyatga vafodorlik bilan xizmat qilayotgan fan va texnika yutuqlarini: samolyot, raketa, tibbiy kashfiyotlarni yaratdi. Sivilizatsiyaning keyingi rivojlanish jarayonlari kelajakda insoniyat fantaziyasining yaratuvchilik imkoniyatlarining beqiyosligi va cheksizligidan dalolat bermoqda. Haqiqiy ma'nodagi ilmiy-fantastika paydo bo'lguncha, qadimiy turk xalqlari og'zaki va yozma adabiyotlarida fantastika elementlari, ilohiy kuch-qudratga ega bo'lgan fantastik obrazlar yaratilgan. Bizning eramizgacha VI asrlarda yaratilgan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining qadimiy yodgorligi bo'lgan "Avesto"da tabiat va jamiyat hodisalari mifologik syujetlar hamda obrazlar yordamida tasvirlanadi. "Avesto"da tasvirlanishicha butun borliq ikkita kuch yorug'lik va zulmatning doimiy kurashdan iborat bo'lib, yorug'lik-yaxshilikni, zulmat esa yomonlik, zulmni ifodalaydi. Zulmat kuchlari yer ostida, yaxshilik kuchlari esa osmon-u falakda yashaydilar. Yer yuzasi esa bu ikki kuchning jang maydoni. Yaxshilik va yorug'lik kuchlariga - Axuramazda, yomonlik va zulmat kuchlariga - Axriman boshchilik qiladi. Ularning xizmatida esa tabiatning u yoki bu hodisasini ifoda etuvchi quyosh xudosi - Mitra, er, suv va hosildorlik ma'budasi-Anaxita, yarim odam-yarim ho'kiz - Qayurmas singari mifologik obrazlar turadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida shunday ertaklar ham borki, ular-da sehrli narsalar ham tasvirlanadi. Qahramon sehrli narsaga erishish uchun biror bir yaxshilik qilishi kerak. Bu o'rinda xalqimizning "Yaxshilikka yaxshilik" aqidasi namoyon bo'lgan. Masalan, "Qorajonboy", "Ur to'qmoq" singari ertaklar shular jumlasidandir. Agar miflarda yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash xudolar, ma'budlar va ularning yordamidagilar yarim odam, yarim hayvon siymolarida tasvirlansa, ertaklarda qahramon endi o'z kuch-qudratiga ishongan holda zulmga qarshi kurashdi. Sehrlangan tilsimli narsalar esa faqat unga yordam beradi. Ko'rinadiki, fantastika asta-sekinlik bilan ertak, afsona, rivoyat, dostonlardagi tasvirlarda real inson hayotiga, turmushiga yaqinlashib kela boshlagan. Jumladan, Rabg'uziyning "Qissai Rabg'uziy" Xorazmiyning

“Muhabbatnoma”, Navoiy “Xamsa”sida, Majlisiyning “Qissai Sayfulmulik” singari asarlarida ko’rishimiz mumkin.

Navoiy dostonlarida fantastik tasvirlar tasodif emas, chunki birinchidan, ular judayam ko’p, ikkinchidan, ular ma’lum ma’noda e’tiqod tasavvurlarini aks ettiruvchi fantastika emas, balki shoir g’oyalarini ifodalovchi badiiy uslub sifatida ko’zga tashlanadi. Navoiy asarlaridagi fantastika elementlarini tahlili ularning turli-tumanligini ko’rsatadi va u nisbatan uchta guruhga ajratiladi.

Birinchisi, sof fantastik elementlar, ikkinchisi –ilmiy fantastik, uchinchi noilmiy fantastik elementlari. Bu tasnifni biz R.Ibrohimova fikr-mulohazalariga tayangan holda berayapmiz. Ma’lumki, Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni qahramonlik mavzusidagi asardir. Biroq, uning asosiy motivi sevgi-muhabbatdir. Farhod va Shirin muhabbati, sevgisi Navoiyning dostonidagi ko’zlagan bosh maqsadi va g’oyasini ochishga qaratilgan asarning tamal toshidir. Shoir sevgi-muhabbat motivini yoritish uchun realistik, romantik va fantastik usullardan va obrazlardan foydalanadi. Doston tuzilishida biz uchta asosiy fantastik epizodlarni ko’ramiz:

1) Farhodning birinchi qahramonligi. Uning g’orga kirib ajdoho va devlar bilan olishuvi va g’orda Aflotun xazinasini topishi, Sulaymonning sehrli qilichi va qalqoniga ega bo’lishi.

2) Farhodning ikkinchi qahramonligi. Uning zulmat ruhi Axriman bilan olishuvi va Sulaymonning sehrli uzukiga ega bo’lishi.

3) Farhodning uchinchi qahramonligi. Iskandar tilsimini yechishi, Suqrot oldiga toqqa chiqishi va u yerda “Oynai jahon” tilsimini yechishi. Dostonidagi bu tasvirlar, epizodlar tuzilishi va mazmun e’tibori bilan ertaklar motivini eslatadi.

Navoiyning bosh maqsadi, Farhodni real hayotiy turmushdagi, xususan, uning taqdiridagi murakkabliklarni, sinovlarni yengishga qodir ekanligini, buning uchun Farhodda yetarlicha jismoniy kuch-quvvat, bilim borligini ko’rsatishdan iborat edi.

“Saddi Iskandariy” dostoni ilmiy-fantastik xarakteridagi epizodlar bilan to’lib-toshgan. Xususan, Iskandarning suv osti olamini bilishga, o’rganishga bo’lgan intilishi buning yorqin dalilidir. Sukrot boshchiligidagi suv osti olamiga sayohatda Iskandar daryolarning uzunligini o’lchashni hamda suv osti olami to’g’risida qaydlar yozib borishni buyuradi. Iskandar suv osti olamini ko’rish uchun oynadan yasalgan shar shaklidagi maxsus asbobni yasashga Suqrotni jalb etadi. U tayyor bo’lgandan keyin 100 kun suv osti olamini tomosha qiladi. Navoiy zamonasida bunday epizod tasvirini faqat xayolot tasviri bilan berish mumkin edi. Shuningdek, dostonida Navoiy xayoloti bilan yaratilgan “suzuvchi orol” epizodi ham bor. Iskandar eng zo’r kema yasovchilarni yig’ib, 3 mingta kema yasashni va shu bilan “suzuvchi” shahar barpo qilishni buyuradi. Navoiyning asarlaridagi fantastik epizodlar, voqealar, uydirmalar o’zining real zaminiga ega edi. “Sa’ddi Iskandariy” keskin konflikt kurash va to’qnashuvlar asosiga qurilgan dostonidir.

Jadid adabiyoti va milliy uyg’onish davri adabiyotida fantastika o’ziga xos bir tarzda rivojlandiki, uning asosini yozuvchilar asarlaridagi “narigi” dunyo jin va ajinalar

ifodasida berish va shu yo'sinda jamiyatdagi holat-hodisalarga munosabat bildirish yotadi. Aniqrog'i, adiblar shu uslub bilan jamiyatga o'zlarining mulosabatlarini bildirdilar.

Xususan, bu hodisa Abdulla Qodiriyning 1921 yilda yaratgan "Jinlar bazmi" hikoyasi diqqatga sazovordir. A.Qodiriyning bu hikoyasi milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib, fantastik obrazlar, epizodlar tasvirlangan asardir. Asarning bosh qahramoni O'sar aka doim jinlar bilan uchrashganligini gapirib yuradi. Bir kuni u boqqa borib noklarni qirqadi. Kechqurin ishini tugatib uyiga qaytadi. Qorong'i tushgan. Yonida birga ishlagan qo'shnilari shaharga qaytish uchun ertaroq ketishgan. O'sar akaning yo'li esa kimsasiz dala va butazorlar orqali o'tardi. Qorong'u va dahshatli dala orqali ketar ekan, hikoya qahramoni uzoqda yorug'likni ko'radi. Uning qulog'iga ko'pgina yig'ilgan odamlarning tovushi, kulgusi, nog'ora, dutor, g'ijjak va tanbur tovushlari chalinadi. Kimsasiz daladagi bu hodisa qahramonni tajjubga soladi. U yerga yaqinlashganida O'sar aka bazm qilayotgan yuzlab yoshlarni va qariyalarni ko'radi. Shunda bazm qurayotganlarning ichidan bittasi chiqib, O'sar akani davrga taklif etadi. Hol ahvol so'raydi. Bu holat qahramonni yanada qattiq ajablantiradi. Kimdir dasturxon yozishni taklif qiladi. Boshqasi esa unga e'tiroz bildiradi va dastlab o'ynab-kulib olishni taklif etadi. Shunda notanish musiqa yangraydi. O'sar aka o'zi bilmagan holda kuyga mast bo'lib raqsga tusha boshlaydi. Bir vaqt oyog'i qattiq bir narsaga tegib yiqilib tushadi. Ertalab uyg'onsa ariqda yotgan bo'ladi. Asarning keyingi voqealari real hayotga ko'chadi. O'sar akaning o'g'li otasining boshidan o'tgan voqeani o'qituvchisiga aytib beradi hamda nima uchun bunday voqealar bo'lishni so'raydi. O'qituvchi unga bu qo'rquv va uning oqibatidagi tasavvur ekanligini aytadi. O'sar akaning o'g'li gumonga tushadi. "Qo'rquv bo'lsa, nima uchun u real bo'lgandek sodir bo'ladi" deya o'yga toladi. O'qituvchi kelasi juma kuni bu haqda sinf o'quvchilari orasida suhbat o'tkazmoqchi ekanligini aytadi. Asar shu bilan tugaydi. Hikoyada ramziy ma'no bor. Qodiriy uni asar syujeti va yechimining tagida beradi. Ya'ni buyuk adib sifatida Qodiriy o'sha davrdagi jamiyatga munosabatini bildirgan, go'yo qurilayotgan jamiyat faqat sarobdan iborat ekanligiga ishorat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbek xalq og'zaki ijodidan fantastik elementlarning ta'siri ostida o'zbek mumtoz adabiyotida fantastik tasvir maydonga kelgan. O'zbek mumtoz adabiyotida fantastik tasvirni deyarli ko'pchilik ijodkorlar asarlarida uchratishimiz mumkin. Birinchi o'zbek ilmiy-fantastik asari yaratilgunga qadar o'zbek adabiyoti shakllanish jarayonini boshdan kechirgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Осипов А. Н. Фантастика от "А" до "Я" М.:1999 .
2. Сиротин А. "Фантазии о прогрессе". – И.: Москва, 2013 г.
3. Tokhirova U.A "The description of image in H.Shaykhov's works" – Студенческий вестник, (8-3)2021. 52-54

4. Asimov Isaac., "The Foundations of Science Fiction". –P.: 1982.

5. Bakoeva M, Muratova E, Ochilova M. "English Literature" – T: Tashkent, 2006.

6. Muxlisa J.Ch (2022). the skill of translators in recreating the historical period reflected in the novel "the days gone by". *academica globe: inderscience research*, 3(01), 76–82

7. Jumamurodovna, C. M. (2022). Expression of the "Pride/Hubris Motif in English Literature. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 1(4), 81–83. Retrieved from <http://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/174>